



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 45,4 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 96,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (71,2 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 9,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 8,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 4,2 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 68,4 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,5 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,8 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish – 4,6 marta oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 7,1 % ga, tabiiy gaz - 0,7 % ga, gazli kondensat - 8,9 %, hamda graviy qazib olish - 82,9 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	100,3	462,6	362,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	26561,0	26362,6	-198,4
Gaz kondensati, ming t.	609,0	554,8	-54,2
Chaqiq tosh, ming t.	373,6	346,9	-26,7
Shag'al , ming t.	130,5	22,3	-108,2


Ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 71,2 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,8 % ni (2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida - 5,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,2 % (23,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 30,7 % (29,6 %) va quyi texnologiyali - 40,3 % (41,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 30,5 % (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 83,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,5 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,3 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,5 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,1 % (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 249,6 mln. dona butilka (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 40,4 % ga o'sgan), 6790,0 ming litr uzum vinosi (29,5 %), 1015,0 mln. dona tamaki mahsuloti (22,6 %), 16728,0 ming litr aroq 100 % spirt (23,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	182632,6	211046,0	28413,4
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	14544,0	13425,1	-1118,9
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	12998,9	13841,0	-842,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	66077,0	88490,0	22413,0
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	376926,0	325153,0	-51773,0




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2019-yil,
% da



2020-yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,7 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 68,4 % ga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	301,3	229,4	-71,9
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	8563,6	8922,8	359,2
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm.</i>	292225,0	788576,0	496351,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	69,1	51,8	-17,3
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	305,6	317,1	11,5
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	124,7	118,6	-6,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 3,8 % ga oshdi. Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash - 4.9 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 25,0 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16,5 trln. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 58,7 % dan 58,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,9 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 6,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 21,5 % ni shuningdek, Yashnobod tumani 16,0 % ni, Mirobod tumani 9,4 % ni, Chilonzor tumani 8,8 % ni hamda Olmazor 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (100,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (111,8 %), Bektemir (106,6 %), Yashnobod (103,4 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (101,9 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	16494,3	100,0	100,6
Uchtepa	813,9	4,9	94,7
Bektemir	3544,5	21,5	106,6
Yunusobod	768,0	4,7	94,0
Mirzo Ulug'bek	1334,6	8,1	94,8
Mirobod	1547,6	9,4	111,8
Shayxontohur	1025,9	6,2	91,9
Olmazor	1352,8	8,2	94,0
Sirg'ali	1290,8	7,8	101,9
Yakkasaroy	719,9	4,4	95,2
Yashnobod	2637,1	16,0	103,4
Chilonzor	1459,3	8,8	99,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 43,2 %, shuningdek, Sirg'ali 11,2 % ni, Yashnobod tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (111,4 %), Mirobod (111,1 %), Bektemir (105,2 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	5921,2	100,0	103,8
Uchtepa	395,7	6,7	100,2
Bektemir	2558,5	43,2	105,2
Yunusobod	232,1	3,9	101,1
Mirzo Ulug'bek	272,4	4,6	111,4
Mirobod	218,8	3,7	111,1
Shayxontohur	182,6	3,1	100,3
Olmazor	474,0	8,0	101,6
Sirg'ali	665,9	11,2	102,6
Yakkasaroy	124,5	2,1	104,3
Yashnobod	480,1	8,1	101,1
Chilonzor	316,6	5,3	100,5

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnabod tumaniga to'g'ri kelib, 14,6 % ni, shuningdek, Mirobod 13,8 % ni, Chilonzor 11,9 % ni, Mirzo Ulug'bek 11,1 % ni, Bektemir 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (112,9 %), Mirobod (111,9 %), Bektemir (110,3 %), Sirg'ali (101,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	9606,1	100,0	99,8
Uchtepa	418,2	4,4	90,1
Bektemir	986,0	10,3	110,3
Yunusobod	464,1	4,8	91,5
Mirzo Ulug'bek	1062,3	11,1	91,3
Mirobod	1328,8	13,8	111,9
Shayxontohur	764,9	8,0	90,8
Olmazor	878,8	9,1	90,3
Sirg'ali	559,7	5,8	101,4
Yakkasaroy	595,4	6,2	93,5
Yashnobod	1405,4	14,6	112,9
Chilonzor	1142,7	11,9	98,7



**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	45444,8	96,0
Uchtepa	2405,3	101,4
Bektemir	4250,5	97,0
Yunusobod	3018,7	107,7
Mirzo Ulug'bek	3924,1	106,4
Mirobod	4611,1	83,0
Shayxontohur	2661,6	93,6
Olmazor	3018,9	100,1
Sirg'ali	4065,5	98,4
Yakkasaroy	2065,2	104,7
Yashnobod	12952,9	102,0
Chilonzor	2471,0	98,4



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 83,0%), Shayxontohur (93,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (100,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (111,8 %), Bektemir (106,6 %), Yashnobod (103,4 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (101,9 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 28,5 %), Mirobod (10,1 %), Bektemir (9,4 %), Sirg'ali (8,9 %) hamda Mirzo Ulug'bek (8,6 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy (4,5 %) hamda Uchtepa (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16,6 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 74,4 %), Chilonzor tumanida (74,4 %), Sirg'ali tumanida (61,9 %), Yakkasaroy (55,6 %), Uchtepa (52,8 %), Yunusobod (42,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (16,4 %), Mirobod (18,4 %) va Shayxontohur (29,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 15,4 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,8 %) Olmazor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,6 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,1 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,8 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,8 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020-yilning yanvar-sentabr oylarida shaharda 1475 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 190 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 12,9 %) Olmazor tumanida, 188 tasi (12,7 %) Chilonzor tumanida, 144 tasi (9,8 %) Uchtepa tumanida, 159 tasi (10,8 %) Mirzo Ulug'bek tumanida, 141 tasi (9,6 %) Shayxontohur tumanida hamda 143 tasi (9,7 %) Yunusobod tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 124 ta), Chilonzor (1 945 ta), Uchtepa (1 861 ta), Yunusobod (1 670 ta) hamda Shayxontohur (1 377 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar (1 oktabr 2020 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar (1 oktabr 2020 yil holatiga)



2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (514 ta), Mirobod (882 ta), Yakkasaroy (1 201 ta), Yashnobod (1 219 ta), Mirzo Ulug'bek (1 287 ta) tumanlarida qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi (2020-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra)

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 265 ta loyiha bo'yicha 3535,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 46,4 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 513 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 39,5 foizga kamaydi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	287	265
Korxonalar soni, birlik	112	93
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	4479,6	3535,6
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	76,6	46,4
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	5396	513

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16